ARP
Academic research publisher

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

SCIENCE AND INNOVATION AT A NEW STAGE: GLOBAL CHALLENGES, INTERDISCIPLINARY APPROACHES AND PRACTICAL SOLUTIONS

Conference Proceedings

Conference date: **25 September 2026**
Website: **academscience.com**
Tashkent-London

Indexed in
zenodo | OpenAIRE

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«SCIENCE AND INNOVATION AT A NEW STAGE: GLOBAL CHALLENGES, INTERDISCIPLINARY APPROACHES AND PRACTICAL SOLUTIONS»

Tashkent, London
September 25, 2026

****

Science and innovation at a new stage: global challenges, interdisciplinary approaches and practical solutions // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. September 25, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo'shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher"** (London, United Kingdom) and recommended for publication (September 24, 2026, Protocol No. 36).

CONTENTS

1. FUNDAMENTAL, NATURAL AND EXACT SCIENCES 10

BIR O‘ZGARUVCHILI BIANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN L.A. AYZENBERG TEOREMASI 11

IKKI UCHI ERKIN MUNTAZAM STERJENNING XUSUSIY TEBRANISH CHASTOTALARINI ANALITIK VA CHEKLI ELEMENTLAR USULI YORDAMIDA TAQQOSLASH 18

18$\boldsymbol{\beta}$-GLITSIRRETAT KISLOTASINING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISH TARIXI VA ZAMONAVIY GIBRIDIZATSIYA METODOLOGIYASINING AHAMIYATI 28

ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR YANGI BOSQICHDA, GLOBAL MUAMMOLAR, FANLARARO YONDASHUVLAR VA AMALIY YECHIMLAR 30

SARIOSIYO HUDUDIDA TARQALGAN TABIIY KVARTS QUMLARI VA MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA SHISHALAR SINTEZI VA ULARNING XOSSALARINI TADQIQ ETISH 38

ЕДИНСТВЕННОСТЬ И УСТОЙЧИВОСТЬ РЕШЕНИЯ ОБРАТНЫХ ЗАДАЧ ДЛЯ ЭЛЛИПТИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ 42

2. ENGINEERING, TECHNOLOGY, ENERGY AND DIGITAL TECHNOLOGIES 44

SEMICONDUCTOR OPTICAL AMPLIFIERS FOR NEXT-GENERATION OPTICAL COMMUNICATION: A REVIEW OF MATERIAL SYSTEMS, DEVICE PHYSICS, AND INTEGRATION CHALLENGES 45

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA ULARNI XARID QILISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH 55

EXPERIMENTAL AND THEORETICAL ANALYSIS OF DEFLECTION IN A THREE-HINGED PARABOLIC ARCH UNDER CENTRAL POINT LOADING 66

“ЯШИЛ ЭНЕРГЕТИКА” ДАВЛАТ ДАСТУРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА МИНИФОТОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 72

3. GEOGRAPHY, GEOLOGY, ECOLOGY AND SUSTAINABLE TERRITORIAL DEVELOPMENT 77

“CHO‘YANKON” GRANIT VA GABBRO MINERALLARI ASOSIDA DEVORBOP EMULSIYALAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH 78

SHAHAR EKOTIZIMLARIDA ENERGIYA ALMASHINUVINING MAHALLIY IQLIM MODIFIKATSIYASIGA TA’SIRI 89

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МИГРАЦИОННЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ГОРОДОВ 93

4. AGRICULTURE, VETERINARY SCIENCE, WATER MANAGEMENT AND FOOD SECURITY 100

ASALARICHILIK BILIMLARINING AVLODDAN-AVLODGA UZATILISHI: AN’ANA VA ZAMONAVIYLIK 101

MAKKAJO‘XORI (*ZEA MAYS L.*) DON HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BIOPREPARATLARDAN FOYDALANISH: GLOBAL ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI 111

MAKKAJO‘XORINI ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHDA ISTIQBOLLI BIOPREPARATLARNI QO’LLASHNING DON SIFATIGA TA’SIRI 119

YARATILGAN QURILMADA KO‘PAYTIRILGAN *MACROLOPHUS PYGMAEUS* AVLODLARINI BIOLOGIK KO‘RSATGICHLARINI ISHLAB CHIQISH 127

YOVVOYI UZUM (*VITIS VINIFERA* L. SSP. *SYLVESTRIS*) GENETIK RESURSLARINI O‘RGANISHNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI 135

TOPINAMBUR KIMYOVIY TARKIBI VA UNING AHAMIYATI 138

FARG‘ONA VILOYATI SHAROITIDA OQ LUPINNI ALMASHLAB EKISH BO‘YICHA DALA TAJRIBASI TUZILISHINI ISHLAB CHIQISH..... 147

OQ LUPINNI ALMASHLAB EKISHDA OZIQ MODDALARI ALMASHINUVI VA TUPROQ UNUMDORLIGINI YAXSHILASHNING ILMIY ASOSLARI 156

OQ LUPIN URUG‘INI OZIQAVIY SIFATI VA XAVFSIZLIGI 165

5. MEDICINE, PHARMACY, BIOTECHNOLOGY AND PUBLIC HEALTH..... 173

ENDOMETRIOZ BILAN OG‘RIGAN AYOLLARDA HAYOT SIFATI VA PSIXOLOGIK HOLAT 174

PLANTAGO MAJOR L. (ZUBTURUM) O‘SIMLIGINING FITOKIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIK FAOLLIGI..... 180

TOPINAMBUR VA STEVIYA ASOSIDA ANTIGIPERGLIKEMIK TA'SIRGA EGA BIOFARMATSEVTIK KOMPOZITSIYA YARATISH 184

КУЙИШ СЕПСИСИДА ЖАРРОҲЛИК САНАЦИЯСИ ВА ИНТЕНСИВ ТЕРАПИЯНИ УЙҒУНЛАШТИРИШНИНГ КЛИНИК САМАРАДОРЛИГИ 189

ОЦЕНКА FEF25–75%, FEF50 И FEV1/FEV6 У ПАЦИЕНТОВ С РАННИМИ ПРОЯВЛЕНИЯМИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЁГКИХ 198

КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА БОЛЬНЫХ МЕСТНО-РАСПРОСТРАНЁННОЙ ОСТЕОСАРКОМОЙ В УСЛОВИЯХ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ ОНКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 203

ХСН И ОЖИРЕНИЕ: КАЧЕСТВО ЖИЗНИ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ РЕЗЕРВ В КОНТЕКСТЕ КАРДИОМЕТАБОЛИЧЕСКОЙ ДИСФУНКЦИИ 206

6. ECONOMICS, FINANCE, MANAGEMENT, LAW, TOURISM AND INTERNATIONAL RELATIONS 221

SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTON SHAROITIDA FOYDALANISH MASALALARI 222

QURILISH KORXONALARI BOSHQARUVIGA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY MEXANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 229

KORRUPSION DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISHDA DAVLAT AXBOROT BAZALARI INTEGRATSIYASI: HUQUQIY MUAMMOLAR 239

UY-JOY KOMMUNAL TARMOQLARIDA RESURSLAR OQIMI VA LOGISTIKA TAQSIMOTINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELLARI 244

FROM STATIC THRESHOLDS TO PREDICTIVE SCORING: AN ARTIFICIAL INTELLIGENCE MECHANISM FOR CREDIT RISK ASSESSMENT AND FORECASTING IN COMMERCIAL BANKS 250

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA IQTISODIY O'SISHDAGI AHAMIYATI 256

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MEHNAT BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 267

SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI BANDLIGI VA MEHNAT BOZORI KO‘RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI 279

7. EDUCATION, PEDAGOGY, PSYCHOLOGY, PHILOLOGY AND PHYSICAL EDUCATION 289

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH MODELINING TUZILMASI 290

KLINIK LINGVISTIKADA QO‘LLANADIGAN AYRIM TERMINLARNING MAVZUIY GURUHLARI 299

TAYANCH HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGAN SPORTCHILAR UCHUN QISQA MASOFAGA YUGURISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI..... 305

KREATIVLIKNING O‘QUVCHI ONGI VA KELAJAKDAGI IJODKORLIGI VA G‘OYALARNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O‘RNI..... 310

LEXICO- SEMANTIC PECULIARITIES OF RIDDLESAND THEIR TYPES 317

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI UCHUN SUN’IY INTELLEKTDAN MAQSADLI FOYDALANISH USULLARI..... 322

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA BOG‘LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 330

O‘QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH 335

THE ROLE OF THE FATHER - DAUGHTER RELATIONSHIP IN SHAPING CONSTRUCTIVE CONFLICT RESOLUTION STYLES IN ADOLESCENT GIRLS 340

“BOLA RUHIYATI” TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK TALQINI..... 347

TEXNIKUM O‘QUVCHILARIDA MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 352

TIKUVCHILIK KASB-HUNAR TA’LIMIDA O‘QUVCHILARDA AMALIY KO‘NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI 357

QO‘L TO‘PI (GANDBOL) HAQIDA: TARIXI, QOIDALARI VA BUGUNGI HOLATI 362

GANDBOL (QO‘L TO‘PI) O‘YINI TEXNIKASI VA TAKTIKASINI SAMARALI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK-METODIKASI 365

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 369

TA’LIMDA GLOBAL MUAMMOLAR: YUQORI SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI 378

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ 386

RANG NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI 391

RANG NOMLARINING SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 398

THE ROLE OF GENERATIVE AI IN RECONSTRUCTING PRAGMATIC EFFECTS IN ENGLISH–UZBEK LITERARY TRANSLATION 403

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 408

8. SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES, HISTORY, PHILOSOPHY, CULTURE AND ARTS 412

RAHBAR AYOLNING IJTIMOIY-MA’NAVIY QIYOFASI: ZAMONAVIY BOSHQARUV VA MILLIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI 413

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VOHASI QISHLOQ XO‘JALIGIDA XOTIN-QIZLARNING FIDOKORONA MEHNATI 419

NAJMIDDIN ZOHIDIYNING ILMIY SHAKLLANISHIDA USTOZLARINING O‘RNI 424

INNOVATSION TAFAKKURNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 429

O‘ZBEKISTON KINEMATOGRAFIYASINING MUSTAQILLIK DAVRIDA TAKOMILLASHUVI VA MAFKURAVIY-TARBIYAVIY ROLINING OSHISHI 435

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN OROMGOHNING INTERYER VA DIZAYN MUHITIDA RANGLARNING TA’SIRI HAMDA ULARNI TAHLIL QILISH 442

O‘RTA ASRLAR MADINA SHAHRI TOPOGRAFIYASINI O‘RGANISHDA AL-SAMHUDIYNING «XULOSAT AL-VAFO» ASARI BIRLAMCHI MANBA SIFATIDA..... 450

1. FUNDAMENTAL, NATURAL AND EXACT SCIENCES

BIR O‘ZGARUVCHILI BIANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN L.A. AYZENBERG TEOREMASI

Abdurahmonov Bohodir Asror o‘g‘li
“Yurt school” makatabi
aptmathematic@gmail.com;
Ishankulov Tolib
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tolibi@mail.ru

Annotatsiya. *Zamonaviy matematik analiz va xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida chegaraviy masalalarni tadqiq etish fundamental ahamiyat kasb etadi. Xususan, gidrodinamika, tekis elastiklik nazariyasi, plastinkalarning egilish nazariyasi hamda turli xil fizik jarayonlarni ifodalovchi elliptik sistemalardagi masalalar bevosita analitik va bianalitik funksiyalar sinflarida qo‘yiladigan chegaraviy masalalarga kelib taqaladi. Bianalitik funksiyalar bir vaqtning o‘zida ikkita mustaqil analitik komponentga bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularning chegaraviy xatti-harakati klassik analitik funksiyalarga qaraganda ancha murakkab tizimni tashkil etadi. Kompleks tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan L.A. Ayzenberg teoremasi chegaraning bir qismida berilgan ma’lumotlar asosida funksiyani soha ichiga analitik davom ettirish mezonlarini beruvchi eng asosiy natijalardan biri hisoblanadi.*

Ushbu ilmiy maqolada kompleks o‘zgaruvchining funksiyalar nazariyasidagi L.A. Ayzenberg teoremasining bir o‘zgaruvchili bianalitik funksiyalar sinfiga tatbiqi va umumlashtirilishi chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida chegaraning bir qismi bo‘lgan silliq yoyda funksiyaning o‘zi va uning hosilasi berilganda, soha ichida bianalitik funksiyaning mavjud bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlari topildi. Buning uchun Koshi tipidagi maxsus integrallar tuzilib, ularning xossalari, chegaradagi sakrash formulalari hamda integral momentlar ketma-ketligi puxta tahlil qilindi. Natijada chegaraviy ma’lumotlar asosida tuzilgan Koshi–Adamar tipidagi limit tengsizliklari bianalitik davom ettirish masalasining to‘liq yechilishini ta’minlashi qat’iy isbotlandi.

Kalit so‘zlar. *Analitik funksiyalar, bianalitik funksiyalar, bianalitik tenglamalar, Koshi tipidagi integrallar, Ayzenberg teoremasi, chegaraviy masala,*

Soxotskiy–Plemelj formulalari, golomorf funksiyalar, moment integrallari, Koshi–Adamar sharti.

***Аннотация**. Исследование краевых задач теории функций и уравнений с частными производными играет фундаментальную роль в современной математике. Многие прикладные задачи математической физики, включая задачи плоской теории упругости, гидродинамики и теории тонких пластин, естественным образом сводятся к исследованию граничных свойств бианалитических функций. Структура бианалитических функций определяется двумя независимыми аналитическими компонентами, что существенно усложняет постановку и исследование граничных задач по сравнению с классическим гармоническим и комплексным анализом. Теорема Л.А. Айзенберга занимает особое место среди фундаментальных результатов аналитического продолжения функций с части границы.*

В настоящей работе рассматривается перенесение и обобщение теоремы Л.А. Айзенберга на классы бианалитических функций одного комплексного переменного. Исследуется корректность задачи восстановления бианалитической функции внутри области по её значениям и значениям её производной, заданным на гладкой части границы. С использованием аппарата интегралов типа Коши и граничных формул Сохоцкого–Племеля получены и строго доказаны необходимые и достаточные условия существования решения. Данные условия сформулированы в виде конструктивных предельных неравенств Коши–Адамара для моментных интегралов, что дает полный критерий бианалитической продолжимости.

***Ключевые слова:** Аналитические функции, бианалитические функции, бианалитические уравнения, интегралы типа Коши, теорема Айзенберга, краевая задача, формулы Сохоцкого–Племеля, голоморфные функции, интегралы моментов, условие Коши–Адамара.*

***Abstract.** The study of boundary value problems in complex analysis and partial differential equations represents a cornerstone of contemporary mathematical analysis. Diverse physical phenomena and engineering applications, such as two-dimensional elasticity, fluid mechanics, and the mechanics of isotropic plates, are mathematically governed by boundary value problems for analytic and bianalytic functions.*

Since bianalytic functions are characterized by a representation involving two independent holomorphic components, their boundary behavior requires more intricate analytic treatment than that of monogenic functions. Aizenberg's theorem

provides an indispensable framework for solving ill-posed continuation problems from partial boundaries.

This paper investigates the theoretical extension of L.A. Aizenberg's classical theorem to classes of bianalytic functions of a single complex variable. We establish the necessary and sufficient conditions for the existence of a regular bianalytic solution in a domain when the boundary data and its normal derivative are prescribed on a smooth subarc of the boundary. By constructing auxiliary Cauchy-type integrals and employing the Sokhotski–Plemelj jump formulas, the boundary continuation criterion is derived in terms of limit inequalities of Cauchy–Hadamard type for boundary moment integrals. The obtained criteria establish a constructive basis for solving Cauchy problems for higher-order elliptic systems.

***Keywords**: Analytic functions, bianalytic functions, bianalytic equations, Cauchy-type integrals, Aizenberg's theorem, boundary value problem, Sokhotski–Plemelj formulas, holomorphic functions, moment integrals, Cauchy–Hadamard condition.*

Asosiy qism va masalaning qo'yilishi

Chegarasi $\gamma=\{z\in C:|z|=1\}$ birlik aylana yoyi hamda uning ikkita uchini birlashtiruvchi silliq Γ yoyidan iborat bo'lgan sohani Ω_1 orqali belgilaymiz. Faraz qilaylik, nol nuqta $\overline{\Omega_1}$ sohaning yopig'idan tashqarida yotsin ($0\notin\overline{\Omega_1}$) va quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$a_k^{(0)}=\int_\Gamma \frac{f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta,\quad a_k^{(1)}=\int_\Gamma \frac{f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta,\quad (k=0,1,2,\dots) \qquad (1)$$

bu yerda $f_0,f_1\in C(\Gamma)\cap L^1(\Gamma)$.

Teorema. Quyidagi chegaraviy shartlarni: $w(z)|_\Gamma=f_0(\zeta)$, $\frac{\partial w(z)}{\partial\bar{z}}|_\Gamma=f_1(\zeta)$ qanoatlantiruvchi $w(z)\in\Pi_2(\Omega_1)\cap C^1(\overline{\Omega_1})$ bianalitik funksiya mavjud bo'lishi uchun quyidagi

$$\limsup_{k\to\infty}\sqrt[k]{|a_k^{(0)}|}\le 1 \quad \text{va} \quad \limsup_{k\to\infty}\sqrt[k]{|a_k^{(1)}|}\le 1 \qquad (2)$$

tengsizliklarning bajarilishi zarur va yetarli.

Proof. **Zaruriyligi.** Faraz qilaylik, teorema shartlarini qanoatlantiruvchi $w(z)\in\Pi_2(\Omega_1)\cap C^1(\overline{\Omega_1})$ bianalitik funksiya mavjud bo'lsin. Ma'lumki, bu holda $w(z)$ funksiya Ω_1 sohada

$$w(z)=\varphi_0(z)+\bar{z}\varphi_1(z)$$

ko‘rinishda tasvirlanadi, bu yerda $\varphi_0(z)$ va $\varphi_1(z)=\frac{\partial w}{\partial \bar{z}}$ funksiyalar Ω_1 da analitikdir. U holda

$$\varphi_0(z)=w(z)-\bar{z}\frac{\partial w(z)}{\partial \bar{z}} \quad \text{va} \quad \varphi_1(z)=\frac{\partial w(z)}{\partial \bar{z}}$$

funksiyalar Ω_1 sohada analitik va $\overline{\Omega_1}$ da uzluksiz bo‘ladi.

Ixtiyoriy $0<\varepsilon<1$ uchun $\Gamma_\varepsilon=\Gamma\cap\{z:|z|<1-\varepsilon\}$ bo‘lsin. Γ_ε chiziq hamda $\gamma_{1-\varepsilon}=\{z:|z|=1-\varepsilon\}$ aylananing Ω_1 soha ichida yotgan qismi bilan chegaralangan sohani D_ε deb belgilaymiz. Analitik funksiyalar uchun Koshi integral teoremasiga asosan:

$$a_k^{(0,\varepsilon)}\&=\int_{\Gamma_\varepsilon}\frac{f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta=\int_{\gamma_{1-\varepsilon}\cap\Omega_1}\frac{\varphi_0(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta,$$

$$a_k^{(1,\varepsilon)}\&=\int_{\Gamma_\varepsilon}\frac{f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta=\int_{\gamma_{1-\varepsilon}\cap\Omega_1}\frac{\varphi_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta.$$

Ushbu integrallardan quyidagi baholashlar kelib chiqadi:

$$|a_k^{(0,\varepsilon)}|\le C_0(\varepsilon)(1-\varepsilon)^{-(k+1)},\quad |a_k^{(1,\varepsilon)}|\le C_1(\varepsilon)(1-\varepsilon)^{-(k+1)}.$$

Boshqa tomondan:

$$a_k^{(0)}\&=a_k^{(0,\varepsilon)}+\int_{\Gamma\setminus\Gamma_\varepsilon}\frac{f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta,$$

$$a_k^{(1)}\&=a_k^{(1,\varepsilon)}+\int_{\Gamma\setminus\Gamma_\varepsilon}\frac{f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta.$$

$\Gamma\setminus\Gamma_\varepsilon$ to‘plamda $|\zeta|\ge 1-\varepsilon$ ekanligini e’tiborga olsak:

$$|a_k^{(0)}|\le|a_k^{(0,\varepsilon)}|+\left|\int_{\Gamma\setminus\Gamma_\varepsilon}\frac{f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)}{\zeta^{k+1}}d\zeta\right|\le\left(C_0(\varepsilon)+\widetilde{C}_0(\varepsilon)\right)(1-\varepsilon)^{-(k+1)}.$$

Xuddi shuningdek:

$$|a_k^{(1)}|\le\left(C_1(\varepsilon)+\widetilde{C}_1(\varepsilon)\right)(1-\varepsilon)^{-(k+1)}.$$

Ikkala tomondan k-darajali ildiz chiqarib, $k\to\infty$ da yuqori limitga o‘tsak:

$$\limsup_{k\to\infty}\sqrt[k]{|a_k^{(0)}|}\le\frac{1}{1-\varepsilon},\quad \limsup_{k\to\infty}\sqrt[k]{|a_k^{(1)}|}\le\frac{1}{1-\varepsilon}.$$

Bu tengsizliklarda $\varepsilon\to 0$ da limitga o‘tsak, (2) shartlar hosil bo‘ladi. Zaruriylik isbotlandi.

Yetarliligi. Endi esa quyidagi Koshi tipidagi integrallarni qaraymiz:

$$F_0(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_\Gamma\frac{f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)}{\zeta-z}d\zeta,\quad F_1(z)=\frac{1}{2\pi i}\int_\Gamma\frac{f_1(\zeta)}{\zeta-z}d\zeta. \qquad (3)$$

Bu integrallar Ω_1 sohada golomorf bo‘lgan F_0^+ va F_1^+ hamda birlik doiradan $\overline{\Omega_1}$ ni chiqarib tashlash natijasida hosil bo‘lgan sohada golomorf bo‘lgan F_0^- va F_1^-

funksiyalarni aniqlaydi. Soxotskiy–Plemelj formulalariga ko‘ra, bu funksiyalarning Γ dagi limitik qiymatlari ayirmasi uchun quyidagilar o‘rinli:

$$F_0^+(\zeta)-F_0^-(\zeta)\&=f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta),\quad \zeta\in\Gamma, \tag{4}$$

$$F_1^+(\zeta)-F_1^-(\zeta)\&=f_1(\zeta),\quad \zeta\in\Gamma. \tag{5}$$

$F_0(z)$ va $F_1(z)$ funksiyalarni nol nuqta atrofida darajali qatorga yoyib,

$$\frac{1}{\zeta-z}=\sum_{k=0}^{\infty}\frac{z^k}{\zeta^{k+1}}\qquad (|z|<|\zeta|)$$

ayniyatdan foydalansak, qator koeffitsiyentlari mos ravishda $\frac{a_k^{(0)}}{2\pi i}$ va $\frac{a_k^{(1)}}{2\pi i}$ ga teng ekanligini olamiz. (2) shartlar bajarilgani sababli, Koshi–Adamar formulasiga asosan bu qatorlarning yaqinlashish radiusi $R\geq 1$ bo‘ladi. Binobarin, $F_0^-(z)$ hamda $F_1^-(z)$ funksiyalar butun birlik doira $\{z:|z|<1\}$ da golomorfdir.

U holda Ω_1 sohada quyidagi funksiyani tuzamiz:

$$w(z)=\left(F_0^+(z)-F_0^-(z)\right)+\bar{z}\left(F_1^+(z)-F_1^-(z)\right).$$

F_0^- va F_1^- butun birlik doirada (jumladan Ω_1 da ham) golomorf bo‘lganligi uchun, $w(z)\in\Pi_2(\Omega_1)\cap C^1(\overline{\Omega_1})$ bo‘ladi. (4) va (5) munosabatlarga binoan chegaradagi limitik qiymatlar:

$$w(z)|_\Gamma=\left(f_0(\zeta)-\bar{\zeta}f_1(\zeta)\right)+\bar{\zeta}f_1(\zeta)=f_0(\zeta),$$

$$\frac{\partial w(z)}{\partial\bar{z}}|_\Gamma=F_1^+(\zeta)-F_1^-(\zeta)=f_1(\zeta).$$

bo‘ladi. Demak, izlanayotgan $w(z)$ bianalitik funksiya to‘liq aniqlandi. Teorema isbotlandi.

Natijalar tahlili va muhokama: Ushbu tadqiqotda olingan natijalar bir kompleks o‘zgaruvchili analitik funksiyalar uchun klassik L.A. Ayzenberg teoremasining bianalitik funksiyalar sinfiga tabiiy va qat’iy umumlashtirilishi hisoblanadi. Olingan asosiy ilmiy natijalarning kengaytirilgan tahlili quyidagi muhim xulosalarni beradi:

- **Chegaraviy shartlarning xususiyati va erkinlik darajasi:** Analitik funksiyalardan farqli o‘laroq, bianalitik funksiya ikkita mustaqil analitik komponent orqali tasvirlanadi. Shu sababli chegaraning bir qismi bo‘lgan silliq yoyda bitta emas, balki ikkita mustaqil chegaraviy shart, ya’ni funksiyaning o‘z qiymati hamda uning kompleks hosilasi birgalikda berilishi talab etiladi. Bu esa ikkinchi tartibli elliptik tenglamalar uchun Koshi masalasining to‘g‘ri qo‘yilishini to‘liq ta’minlaydi.
- **Koshi tipidagi integrallar va chegaraviy sakrashlar:** Isbot jarayonida tuzilgan Koshi tipidagi integrallar yordamida soha ichida hamda tashqarisida regulyar funksiyalar juftligi hosil qilindi. Soxotskiy–Plemelj formulalariga binoan,

ushbu funksiyalarning chegaraviy yoy bo‘yicha sakrashlari aynan berilgan boshlang‘ich chegaraviy funksiyalarni to‘liq tiklab berishi asoslandi. Mazkur mexanizm chegaraviy ma’lumotlarni ichki analitik qismlarga to‘siqsiz ajratish imkonini yaratdi.

- **Limit tengsizliklarining mezon sifatidagi roli:** Aniqlangan integral momentlari chegaraviy funksiyalarning barcha analitik xossalarini o‘zida jamlaydi. Teoremadagi limit tengsizliklari Koshi–Adamar qoidasiga muvofiq, tashqi sohadagi qatorlarning yaqinlashish radiusi kamida birga teng bo‘lishini, ya’ni ularning butun birlik doira ichiga hech qanday maxsus nuqtalarsiz analitik davom ettirilishini kafolatlaydi. Bu esa sohada bianalitik yechim mavjud bo‘lishining zaruriy va yetarli mezonidir.
- **Yechimning yagonaligi va konstruktivligi:** Masalaning yagonaligi analitik funksiyalar nazariyasidagi Privalov teoremasiga tayangan holda to‘la isbotlandi. Natijada chegaraning qolgan noma’lum qismidagi qiymatlarga murojaat qilmasdan, funksiyani soha ichida bevosita tiklashga xizmat qiluvchi aniq integral apparat yaratildi.

Xulosa. Ushbu ishda bir o‘zgaruvchili bianalitik funksiyalar uchun L.A. Ayzenberg teoremasi umumlashtirildi. Soha chegarasining silliq yoyida funksiya va uning hosilasi berilganda, sohada bianalitik funksiya mavjud va yagona bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlari Koshi–Adamar tipidagi limit tengsizliklari ko‘rinishida olindi. Natijalar Koshi tipidagi integrallar va Soxotskiy–Plemelj chegaraviy formulalari apparati yordamida to‘liq asoslandi. Olingan ilmiy xulosalar chegaraning bir qismida berilgan nostandart chegaraviy masalalarni yechish imkonini beradi. Mazkur nazariy natijalarni kelgusida ko‘p o‘zgaruvchili holatga, trianalitik funksiyalar sinfiga yoki V.V. Pokazeyev uslubidagi yuqori tartibli metaanalitik funksiyalar sinflariga umumlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vekua I.N. Generalized Analytic Functions. — Moscow: Nauka, 1988.
2. Pokazeyev V.V. On the Cauchy formula for n-metaanalytic functions // Differential Equations and Function Theory. — Kazan, 2005. — Vol. 3, P. 112–118.
3. Carleman T. Les fonctions quasi-analytiques. — Paris: Gauthier-Villars, 1926.
4. Lavrentiev M.M. Some Improperly Posed Problems of Mathematical Physics. — New York: Springer-Verlag, 1967.

5. Hadamard J. Sur les problèmes aux dérivées partielles et leur signification physique //

Princeton University Bulletin. — 1902. — P. 49–52.

6. Narasimhan R. Several Complex Variables. — Chicago: The University of Chicago Press, 1971

7. Aizenberg L.A. Carleman's formulas in complex analysis. Theory and applications. - Dordrecht: Springer, 1993. 299 p.

8. Rasulov K.M. Boundary value problems for polyanalytic functions and some of their applications. --- Smolensk: SGPU Publ., 1998. 343 p.

9. Galmukova I.A., Rasulov K.M. Solutions of the boundary value problem of the Carleman type in classes of generalized meta-analytic functions in a unit circle // Vestnik Yuzhno-Ural. Gos. Un-ta. Ser. Matem. Mekh. Fiz. --- 2024. --- Vol. 16, No. 3. --- P. 12–17.

10. Tarkhanov N. The Cauchy problem for solutions of elliptic equations. --- Berlin: Akademie-Verlag, 1995. 300 p.

11. Balk M.B., Zuev M.F. On polyanalytic functions // Russian Mathematical Surveys. --- 1970. --- Vol. 25, No. 5. P. 201–223.

IKKI UCHI ERKIN MUNTAZAM STERJENNING XUSUSIY TEBRANISH CHASTOTALARINI ANALITIK VA CHEKLI ELEMENTLAR USULI YORDAMIDA TAQQOSLASH

Egamqulov Abror Bekmirza o‘g‘li
Samarqand davlat texnika universiteti
abroregamqulov298@gmail.com

Annotatsiya. *Bu ishda ikki uchi erkin bo‘lgan bir jinsli, o’zgarmas kesimli sterjenning xususiy tebranish chastotalarini analitik va sonli usullar yordamida aniqlash hamda olingan natiyjalarni taqqoslash masalasi qaralgan. Sterjenning erkinegilish erkin egilish chastotalari chekli elementlar usuli asosida modellashtirib hisoblashlar MATLAB da amalga oshiriladi. Umimiy matritsalardan xususiy qiymatlar masalasi yechildi va dastlabki sakkista deformatsiya tebranish tartibiga mos xususiy chastotalar aniqlandi. MATLAB da olingan antiyjalar analitik hisoblashlar natijalari bilan taqqoslandi. Natiyjalar orasidagi farq juda kichik bo‘lib sakkizinchi tebranishda maksimal xatoli 0.0055708 % ni tashkil etdi. Olingan natiyjalar chekli elementlar usulining muntazam sterjenlarni xususiy tebranish tebranishlar chastotalarini aniqlashdagi aniqligini baholashga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *Bir jinsli sterjen, xususiy chastota, erkin tebranish, egilish tebranishi, analitik usul, chekli elementlar usuli, MATLAB, tebranish shakli.*

Аннотация. *В данной работе рассматривается задача определения собственных частот колебаний однородного стержня со свободными концами аналитическим и численным методами, а также сравнения полученных результатов. Свободные изгибные колебания стержня моделируются и рассчитываются с использованием метода конечных элементов в программной среде MATLAB. На основе глобальных матриц системы решается задача на собственные значения, и определяются собственные частоты, соответствующие первым восьми формам колебаний. Результаты, полученные в MATLAB, сравниваются с результатами аналитических расчетов. Разница между полученными результатами оказалась незначительной: максимальная погрешность для восьмой формы колебаний составила 0,0055708 %. Полученные результаты позволяют оценить точность метода конечных элементов при определении собственных частот свободных изгибных колебаний однородных стержней.*

Ключевые слова: *Регулярный стержень, собственная частота, свободные колебания, изгибные колебания, аналитический метод, метод конечных элементов, MATLAB, порядок колебаний.*

Abstract. *This study considers the determination of the natural frequencies of a uniform beam with free end using analytical and numerical methods, as well as a comparison of the obtained results. The free bending vibrations of the beam are modeled and analyzed using the finite element method in the MATLAB environment. The eigenvalue problem is formulated and solved based on the global system matrices, and the natural frequencies corresponding to the first eight mode shapes are determined. The results obtained in MATLAB are compared with those from analytical calculations. The difference between the results is very small, with the maximum error for the eighth mode being 0.0055708%. The obtained results make it possible to evaluate the accuracy of the finite element method in determining the natural frequencies of free bending vibrations of uniform beams.*

Keywords: *Uniform beam, natural frequency, free vibration, bending vibration, analytical method, finite element method, MATLAB, vibration order.*

Kirish. Konstruksiyalarda xususiy tebranish chastotalarini aniqlash, ularning dinamik xususiyatlarini o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xususiy chastota konstruksiyaning tashqi dinamik ta’sirlarga javobini baholash va rezonans holatlarini tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Muntazam va bir jinsli sterjenlar uchun xususiy chastotalarni analitik usul yordamida aniqlash mumkin. Biroq konstruksiya shakli murakkablashganda yoki chegaraviy shartlar o‘zgarganda analitik yechimni olish qiyinlashadi. Bunday hollarda chekli elementlar usuli samarali sonli usullardan biri hisoblanadi.

Chekli elementlar usulida konstruksiya kichik elementlarga ajratiladi. Har bir elementning mexanik xususiyatlari matematik matritsalar yordamida ifodalanadi.

Bu ishning maqsadi ikki uchi erkin bo‘lgan muntazam sterjenning xususiy tebranish chastotalarini analitik usul va chekli elementlar usuli yordamida aniqlash hamda olingan natijalarni sakkizta tebranish tartibi bo‘yicha taqqoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Konstruksiyalarning tebranishlarini nazariy jihatdan o‘rganish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar Timoshenko, Young va Weaverlarning ishlarida keltirilgan bo‘lib, ularda sterjen va konstruksiyalarning tebranish masalalari, xususiy chastotalar hamda chegaraviy shartlarning ta’siri batafsil yoritilgan [1].

Mexanik tebranishlar nazariyasi bo‘yicha Rao ishida erkin va majburiy tebranishlar, xususiy chastotalar hamda xususiy tebranish shakllarini aniqlashning

matematik asoslari keltirilgan [2]. Inman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa muhandislik konstruksiyalarining tebranishlarini modellashtirish va ularning dinamik xususiyatlarini aniqlash masalalariga e'tibor qaratilgan [3].

Meirovitch ishlarida tebranish tizimlarining matematik modellari, xususiy qiymatlar masalasi va modalar tahlili nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan [4]. Craig va Kurdila tomonidan konstruktiv tizimlarning dinamikasi va modal tahlili bo'yicha matematik yondashuvlar ishlab chiqilgan [9].

Chekli elementlar usulining konstruksiyalar dinamikasidagi qo'llanilishi Clough va Penzien, Bathe, Cook va hammualliflarining ishlarida keng yoritilgan [5–7]. Ushbu tadqiqotlarda global bikrlik va massa matritsalarini shakllantirish, xususiy qiymatlar masalasini yechish hamda konstruksiyalarning tebranish shakllarini aniqlash usullari bayon qilingan.

Rao chekli elementlar usulining muhandislik masalalaridagi qo'llanilishini batafsil yoritib, sonli modellashtirishning aniqligi konstruksiyani diskretlashtirish darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi [8]. Hutton va Logan ishlarida ham chekli elementlar modelini shakllantirish va natijalarning aniqligini baholash masalalariga katta e'tibor berilgan [10; 11].

Tadqiqot obyekti va hisoblashlar.

Tadqiqot obyekti sifatida bir jinsli, to'g'ri to'rtburchak kesimli va ikki uchi erkin bo'lgan muntazam sterjen qaraladi.

Hisoblash uchun quyidagi parametrlar qabul qilindi:

$$L=3\ \text{m}$$

$$b=h=0{,}2\ \text{m}$$

$$E=30\cdot10^{9}\ \text{Pa}$$

$$\rho = 2500\ kg/m^3$$

Bu yerda:

- L - sterjen uzunligi;
- b va h - kesim o'lchamlari;
- E - elastiklik moduli;
- ρ - material zichligi.

Sterjenning ko'ndalang kesim yuzasi:

$$A=b\cdot h$$

Berilgan qiymatlarni qo'yib:

$$A=0.2\cdot0.2=0.04\ \text{m}^2$$

To'g'ri to'rtburchak kesimlar uchun inertsiya momenti:

$$I = \frac{bh^3}{12}$$

Hisoblashlar natijasida:

$$I = \frac{0{,}2 \cdot 0{,}2^3}{12}$$

$$I = 1{,}3333 \cdot 10^{-4}\ m^4$$

Sterjenning ikkala uchini ham erkin deb qabul qilamiz. Erkin uchlardagi chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi.

$$M(0)=M(L)=0$$

$$Q(0)=Q(L)=0$$

Matematik modeli.

Sterjenning erkin tebranish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$[M]\{\ddot{q}\} + [K]\{q\} = 0$$

Bu yerda:

[M] - massa matritsasi;

[K] - bikrlik matritsasi;

{q} - sterjenning ko'chish va burilishlarini ifodalovchi vektor.

Garmonik tebranishni quyidagicha qabul qilamiz:

$$\{q\}=\{\varphi\}\sin(\omega t)$$

Ushbu ifodani harakat tenglamasiga qo'yish natijasida xususiy qiymatlar masalasini hosil qilamiz:

$$[K]\{\varphi\}=\omega^2[M]\{\varphi\}$$

Bu yerda:

ω - doiraviy xususiy chastota;

{φ} - xususiy tebranish shakli.

Doiraviy xususiy chastotadan oddiy chastotaga o'tish formulasi:

$$f=\frac{\omega}{2\pi}$$

Bu yerda

f - xususiy chastota, Hz.

Analitik usul yordamida xususiy chastotalarni aniqlash.

Ikkala uchi erkin bo'lgan bir jinsli sterjenning egilish tebranishlari uchun xususiy chastota quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$f_n = \frac{\lambda_n^2}{2\pi L^2}\sqrt{\frac{EI}{\rho A}}$$

Bu yerda:

- F_n - n-tartibli xususiy chastota;

- λ_n n-tartibga mos koeffitsient;
- E - elastiklik moduli;
- I - inertsiya momenti;
- ρ - zichlik;
- A - kesim yuzasi;
- L - sterjen uzunligi.

Ikki uchi erkin sterjenda ikkita qattiq jism harakati mavjud bo‘lib, ular nazariy jihatdan nol chastotaga ega. Ushbu tadqiqotda deformatsion tebranishlar uchun sakkizta tebranish tartibi ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan koeffitsientlarning son qiymatlari:

T/r	λ_n	T/r	λ_n
1	4.7300407	5	17.2787597
2	7.8532046	6	20.4203523
3	10.9956078	7	23.5619449
4	14.1371655	8	26.7035376

1-jadval

Masalan, birinchi tartibli tebranish uchun

$$f_1 = \frac{4{,}7300407^2}{2\pi 3^2}\sqrt{\frac{30 \cdot 10^9 \cdot 1{,}3333 \cdot 10^{-4}}{2500 \cdot 0{,}04}}$$

Natijada:

$$f_1 \approx 79{,}129 \text{ Hz}$$

olinadi.

Analitik xususiy chastotalar

T/r	Analitik, HZ	T/r	Analitik, HZ
1	79.129	5	1055.9
2	218.12	6	1474.8
3	427.61	7	1963.5
4	706.86	8	2522.0

2-jadval.

Chekli elementlar usuli yordamida hisoblash

Sonli hisoblashlar jarayonida sterjen 50 ta teng chekli elementga ajratildi. Har bir element uchun bikrlik va massa matritsalari shakllantirildi. Har bir element ikki tugunga ega bo’lib, har bir tugunda ikkita erkinlik darajasi ko’ndalangqabul qilinadi.

Bu yerda har bir element uchun

$$\{q_e\} = \{w_1\ \theta_1\ w_2\ \theta_2\}^T$$

ko’rinishida yoziladi.

Elementlarning matritsalari birlashtirilib, sterjenning umumiy global bikrlik va massa matritsalari hosil qilindi.

MATLAB muhitida quyidagi xususiy qiymatlar masalasi yechildi:

$$[K]\{\varphi\}=\omega^2[M]\{\varphi\}$$

Natijada har bir tebranish tartibi uchun xususiy chastota va unga mos tebranish shakli aniqlandi.

Ikki uchi erkin sterjenda mavjud bo‘lgan qattiq jism harakatlariga mos nolga yaqin chastotalar deformatsion tebranishlardan ajratildi. Shundan so‘ng sakkizta deformatsion tebranish tartibi analitik natijalar bilan taqqoslandi.

Analitik va MATLAB yordamida olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Analitik va MATLAB natijalarini taqqoslash natiujalarini keltiramiz.

T/n	Analitik, Hz	MATLAB, Hz	Xatoliklar, %
1	79.129	79.129	0.0000055935
2	218.12	218.12	0.000042157
3	427.61	427.61	0.0001618
4	706.86	706.86	0.00044142
5	1055.9	1055.9	0.00098324
6	1474.8	1474.8	0.0019141
7	1963.5	1963.6	0.0033851
8	2522.0	2522.1	0.0055708

3-jadval.

Analitik va MATLAB natijalari orasidagi nisbiy xatolik quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$\varepsilon = \left[\frac{f_{MAT} - f_{anal}}{f_{anal}}\right] \cdot 100\%$$

Sakkizinchi tebranish tartibi uchun:

$$f_{anal} = 2522{,}0\ Hz$$
$$f_{MAT} = 2522{,}1\ Hz$$

Shuning uchun:

$$\varepsilon = \left[\frac{2522{,}1 - 2522{,}0}{2522{,}0}\right] \cdot 100\%$$

Natijalardan ko‘rinadiki, MATLAB qiymatlari analitik natijalarga juda yaqin.

Birinchi tebranish tartibida xatolik 0.0000055935 %, sakkizinchi tebranish tartibida esa 0.0055708 % ni tashkil etdi.

Tebranish tartibi oshishi bilan xatolikning asta-sekin ortishi kuzatildi. Shunga qaramay, sakkizinchi tebranish tartibida ham xatolik 0.01 % dan kichik bo‘lib qoldi.

Xususiy tebranish shakllari

MATLAB hisoblashlari orqali xususiy chastotalar bilan bir qatorda ularga mos tebranish shakllari ham aniqlandi.

Muntazam sterjenning dastlabki sakkizta xususiy tebranish shakllari.

Birinchi tebranish tartibida sterjenning deformatsiyasi nisbatan sodda ko‘rinishga ega bo‘ladi. Tebranish tartibi oshishi bilan tebranish shakli murakkablashadi va tugun nuqtalari soni ortadi.

Yuqori tartibli tebranishlarda sterjenning turli qismlari qarama-qarshi yo‘nalishlarda harakatlanishi kuzatiladi.



1-rasm

Grafik natijalar (1-rasm)

Analitik va MATLAB natijalarini grafik ko‘rinishda taqqoslash uchun tebranish tartibiga bog‘liq xususiy chastotalar grafigi qurildi.

Analitik va MATLAB yordamida aniqlangan xususiy chastotalarni taqqoslash (2-rasm)

Grafikda analitik natijalar va MATLAB natijalari ikki xil rangda tasvirlanadi. Analitik va sonli qiymatlarning bir-biriga juda yaqin joylashishi ikki usul yordamida olingan natijalarning mosligini ko‘rsatadi.

Xatoliklarning tebranish tartibiga bog‘liq o‘zgarishini ko‘rsatish uchun alohida grafik qurildi.

Analitik va MATLAB natijalari orasidagi xatolikning o‘zgarishi (3-rasm)

Grafikdan ko‘rinadiki, tebranish tartibi oshishi bilan xatolik asta-sekin ortadi. Shunga qaramay, sakkizinchi tebranish tartibida ham maksimal xatolik **0.0055708 %** ni tashkil etadi.



2-rasm



3-rasm

Xulosa. Ushbu ishda ikki uchi erkin bo‘lgan muntazam sterjenning xususiy tebranish chastotalari analitik va chekli elementlar usullari yordamida aniqlandi va taqqoslandi.

Hisoblash uchun uzunligi 3 m, kesim o‘lchamlari 0.2·0.2 m, elastiklik moduli $30 \cdot 10^9$ Pa va zichligi 2500 kg/m³ bo‘lgan sterjen qabul qilindi.

Sterjen 50 ta chekli elementga ajratilib, har bir element uchun bikrlik va massa matritsalari shakllantirildi. MATLAB muhitida xususiy qiymatlar masalasi yechildi.

Tadqiqot davomida sakkizta deformatsion tebranish tartibi ko‘rib chiqildi. Analitik va MATLAB natijalari o‘zaro taqqoslandi.

Analitik hisoblashda xususiy chastotalar 79.129 Hz, 218.12 Hz, 427.61 Hz, 706.86 Hz, 1055.9 Hz, 1474.8 Hz, 1963.5 Hz va 2522.0 Hz qiymatlarni tashkil etdi.

MATLAB hisoblashlarida mos ravishda 79.129 Hz, 218.12 Hz, 427.61 Hz, 706.86 Hz, 1055.9 Hz, 1474.8 Hz, 1963.6 Hz va 2522.1 Hz qiymatlar olindi.

Natijalarni taqqoslashda eng kichik xatolik birinchi tebranish tartibida 0.0000055935 %, eng katta xatolik esa sakkizinchi tebranish tartibida 0.0055708 % bo‘ldi.

Shunday qilib, barcha sakkizta tebranish tartibi bo‘yicha analitik va MATLAB natijalari orasidagi farq 0.01 % dan kichik ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar muntazam sterjenning xususiy tebranish chastotalarini aniqlashda chekli elementlar usulidan foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi. Analitik va sonli natijalarning o‘zaro yaqinligi MATLAB asosida ishlab chiqilgan FEM modelining ushbu hisoblash masalasida yuqori aniqlikda ishlashini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Timoshenko S. P., Young D. H., Weaver W. Vibration Problems in Engineering. McGraw-Hill, 1974.
2. Rao S. S. Mechanical Vibrations. Pearson, 2017.
Inman D. J. Engineering Vibration. Pearson, 2014.
3. Meirovitch L. Elements of Vibration Analysis. McGraw-Hill, 1986.
Clough R. W., Penzien J. Dynamics of Structures. McGraw-Hill, 1993.
4. Bathe K. J. Finite Element Procedures. Prentice Hall, 1996.
5. Cook R. D., Malkus D. S., Plesha M. E., Witt R. J. Concepts and Applications of Finite Element Analysis. Wiley, 2001.
6. Rao S. S. The Finite Element Method in Engineering. Butterworth-Heinemann, 2017.
7. Craig R. R., Kurdila A. J. Fundamentals of Structural Dynamics. Wiley, 2006.

8. Hutton D. V. Fundamentals of Finite Element Analysis. McGraw-Hill, 2004.

9. Logan D. L. A First Course in the Finite Element Method. Cengage Learning, 2012.

10. Géradin M., Rixen D. J. Mechanical Vibrations: Theory and Application to Structural Dynamics. Wiley, 2015.

11. Lenci S., Clementi F. Natural frequencies and internal resonance of beams with arbitrarily distributed axial loads. Journal of Applied and

12. Computational Mechanics, 2021, Vol. 7, Special Issue, pp. 1009–1019. DOI: 10.22055/jacm.2020.32927.2104.

18β-GLITSIRRETAT KISLOTASINING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISH TARIXI VA ZAMONAVIY GIBRIDIZATSIYA METODOLOGIYASINING AHAMIYATI

Haydarova Dildora Baxtiyor qizi

Annotatsiya: *Ushbu ishda pentatsiklik triterpenoid 18β-glitsirretat kislotasini (18β-GA) modifikatsiya qilish va uning bio-amalliligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra) aglikonining O‘zbekiston kimyo maktablarida o‘rganilish tarixi sharhlanib, "Klik-kimyo" (CuAAC) orqali azotli geterotsiklik gibridlar sintez qilish hamda ularni kislotali tuzlar shakliga o‘tkazish metodining ilmiy-amaliy ahamiyati va O‘zbekistondagi tadqiqotlar darajasi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *18β-glitsirretat kislotasi, triterpenoidlar, O‘zbekiston kimyo maktabi, gibrid molekulalar, Klik-kimyo, CuAAC, 1,2,3-triazol, suvda eruvchanlik.*

Kirish: O‘zbekiston florasining strategik resurslaridan biri shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra L.*) ildizining aglikoni bo‘lmish 18β-glitsirretat kislotasidir (18β-GA). Pentatsiklik triterpenoid karkasiga ega ushbu molekula yallig‘lanishga qarshi, gepatoprotektor va sitotoksik xossalari bilan ajralib turadi.

O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti hamda O‘simlik moddalari kimyosi instituti (OMKI) olimlari (O.S.Sodiqov, X.A.Yuldashev, G.A.Shaxidoyatov va b.) tomonidan 18β-GA molekulasini ajratib olish va kimyoviy modifikatsiya qilish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Ularning C-3 va C-30 markazlari bo‘yicha atsillangan hosilalari, efirlari hamda ammiakli tuzlari sintez qilingan. Biroq, erishilgan natijalarga qaramay, 18β-GA ning yuqori lipofilligi va suvda erimasligi sababli past bio-amalliligi (bioavailability) muammosi to‘liq o‘z yechimini topmagan.

Biz taklif etayotgan metodning ilmiy-amaliy ahamiyati va O‘zbekistonda o‘rganilganligi: Ushbu muammoni hal etish uchun "Gibrid molekulalar" va "Klik-kimyo" (CuAAC) metodi taklif etiladi. 18β-GA karkasiga dori-simonlik xossasini beruvchi azotli geterotsikllarni (1,2,3-triazol va azollar) biriktirish sinergik biologik ta'sirni oshiradi. Mis ($Cu(I)$) katalizida kechuvchi azid-alkin sikloqo‘shilish reaksiyasi (CuAAC) yuqori regioselektivlikka va unumga (85–95%) ega. Olingan

gibridlarni aminoatsillash va kislotali tuzlar (HCl, maleat, tartrat) shakliga o‘tkazish molekulaning suvda eruvchanligini karrataga oshiradi.

Jahon amaliyotida ushbu yo‘nalish faol rivojlanayotgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda 18β-GA karkasida "Klik-kimyo" orqali triazol gibridlarini yig‘ish va ularning suvda eriydigan kislotali tuzlarini olish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar bajarilmagan. Bu holat mavzuning Respublika miqyosida 100% yangiligini belgilaydi.

Metodologik reja va kutilayotgan natijalar

Tadqiqotda quyidagi sintez bosqichlari ko‘zda tutilgan:

1.Terminal alkin kiritish: 18β-GA karboksil guruhini propargilamin bilan atsillash orqali 18β-GA propargilamidini olish.

2.CuAAC reaksiya: Alkin hosilasi va azidlarni $Cu(I)$/natriy askorbat ishtirokida, inert atmosfera (argon) ostida sikloqo‘shib, 1,2,3-triazol gibridlarini yig‘ish.

3.Suvda eruvchanlikni ta'minlash: C-3 gidroksil guruhini DCC/DMAP katalizida regioselektiv aminoatsillash (glitsin/alanin) hamda mineral/organik kislotalar bilan ta'sirlashtirib, suvda eruvchan kislotali tuzlar olish.

Sintez qilingan birikmalar tuzilishi IKS, ^{1}H va ^{13}C YMR spektrlari bilan tasdiqlanib, ularning suvda eruvchanligi va in vitro sitotoksik/gepatoprotektor faolligi baholanadi.

Xulosa

Taklif etilayotgan metodologiya O‘zbekiston bioorganik va dori kimyosi uchun yangi yo‘nalish bo‘lib, mahalliy shirinmiya xomashyosi bazasida yuqori bio-amallikka ega yangi avlod dori nomzodlarini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sodiqov O.S., va boshq. *Shirinmiya ekstraktiv moddalari kimyosi*. Toshkent: Fan, 1985. 184 b.

2. Dalimov D.N., va boshq. Glitsirrizin kislotasi modifikatsiyasining zamonaviy holati. // *O‘zbekiston Kimyo Jurnali*, 2018. №4. 12-19-b.

3. Xu S., et al. Synthesis of novel 18β-glycyrrhetinic acid derivatives with 1,2,3-triazole moieties. // *Eur. J. Med. Chem.*, 2019. Vol. 182. P. 111623.

4. Gao Y., et al. Design and water-solubility optimization of 18β-glycyrrhetinic acid derivatives. // *Bioorg. Med. Chem. Lett.*, 2021. Vol. 45. P. 128148.

5. Maitre S., Bhaumik A. Chemical modifications of 18β-glycyrrhetinic acid for drug discovery. // *Fitoterapia*, 2022. Vol. 158. P. 105165.

ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR YANGI BOSQICHDA, GLOBAL MUAMMOLAR, FANLARARO YONDASHUVLAR VA AMALIY YECHIMLAR

Narzullaev Iskandar Safarovich
M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazining front orti va moliyaviy ta’minot sikli

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy taraqqiyot sharoitida ilm-fan va innovatsiyalarning jamiyat rivojidagi o‘rni, global muammolarni hal etishda fanlararo yondashuvlarning ahamiyati hamda ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, iqlim o‘zgarishi, ekologik barqarorlik, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi kabi murakkab muammolarni hal etishda turli fan sohalarining o‘zaro integratsiyasi zarurligi asoslangan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish masalalari ham yoritilgan. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilm-fan, innovatsiya, fanlararo yondashuv, global muammolar, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, ilmiy tadqiqot, innovatsion rivojlanish, texnologiya, inson kapitali, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В статье анализируются роль науки и инноваций в развитии общества в условиях современного прогресса, значение междисциплинарных подходов к решению глобальных проблем, а также вопросы практического внедрения научных результатов. Обосновывается необходимость интеграции различных научных областей для решения таких сложных задач, как цифровая трансформация, развитие искусственного интеллекта, изменение климата, обеспечение экологической устойчивости, а также энергетической и продовольственной безопасности. Также освещаются меры по развитию науки и инноваций в Республике Узбекистан, интеграции науки, образования и производства и формированию инновационной инфраструктуры. Кроме того, сформулированы предложения по*

практическому применению научных разработок, поддержке молодых ученых и повышению эффективности научно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова: *наука, инновации, междисциплинарный подход, глобальные вызовы, цифровая трансформация, искусственный интеллект, научные исследования, инновационное развитие, технологии, человеческий капитал, устойчивое развитие.*

Abstract. *This article analyzes the role of science and innovation in societal development amidst modern progress, the importance of interdisciplinary approaches in addressing global challenges, and issues regarding the practical implementation of scientific results. It substantiates the necessity of integrating various scientific fields to solve complex problems such as digital transformation, artificial intelligence, climate change, environmental sustainability, and energy and food security. The article also highlights the initiatives being undertaken in the Republic of Uzbekistan to advance science and innovation, the integration of science, education, and industry, and the development of innovation infrastructure. Furthermore, proposals are formulated for applying scientific developments in practice, supporting young scientists, and enhancing the effectiveness of research activities.*

Keywords: *science, innovation, interdisciplinary approach, global challenges, digital transformation, artificial intelligence, scientific research, innovative development, technology, human capital, sustainable development.*

KIRISH

XXI asrda ilm-fan va innovatsiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Fan va texnologiyalar rivojining jadallashuvi iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika va boshqa ko‘plab sohalarda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, biotexnologiya, yangi materiallar va avtomatlashtirish kabi yo‘nalishlarning rivojlanishi inson faoliyatining mazmunini o‘zgartirmoqda.

Bugungi kunda dunyo oldida turgan muammolar o‘zining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, energiya va oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilish, raqamli xavfsizlik kabi masalalarni faqat bitta fan doirasida hal qilish imkoniyati cheklangan. Shu sababli zamonaviy ilm-fanda fanlararo tadqiqotlar va kompleks yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

